

# Korxonalar va tashkilotlar

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

**2018 yil yanvar– sentyabr holatiga**

## **RAQAMLAR:**

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **1921 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarining ulushi **1.5 f.p. kamaydi**
- Tugatilgan korxonalariga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **1738 taga oshgan.**


2018 yilning yanvar-sentyabr oyida viloyatda yilning boshiga nisbatan 2504 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 45,2 foizga ko'pdir.

Buning natijasida joriy faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 1921 ta (14,0%) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 15640 tani tashkil etgan.

Shuningdek, faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 18,1 % ga kamaygan hamda ularning soni 766 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Termiz shahrida (20,3 foiz), Denov (11,8 foiz), Jarqo'rg'on (7,8 foiz) va Termiz (7,1 foiz) tumanlarida kuzatilmoqda.

## Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




### Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi


|                      | Ro'yxatdan o'tgan |                   | Faoliyat ko'rsatayotgan |                   |
|----------------------|-------------------|-------------------|-------------------------|-------------------|
|                      | birlikda          | jamiga nisbatan % | birlikda                | jamiga nisbatan % |
| Surxondaryo viloyati | 16180             | 100               | 15640                   | 100               |
| Termiz sh.           | 3248              | 20,1              | 3179                    | 20,3              |
| <i>tumanlar:</i>     |                   |                   |                         |                   |
| Oltinsoy             | 629               | 4,0               | 602                     | 3,9               |
| Angor                | 780               | 4,8               | 738                     | 4,7               |
| Boysun               | 780               | 4,8               | 754                     | 4,8               |
| Muzrabot             | 694               | 4,3               | 677                     | 4,3               |
| Denov                | 1926              | 11,9              | 1851                    | 11,8              |
| Jarqo'rg'on          | 1236              | 7,6               | 1223                    | 7,8               |
| Qumqo'rg'on          | 1019              | 6,3               | 948                     | 6,1               |
| Qiziriq              | 835               | 5,1               | 811                     | 5,2               |
| Sariosiyo            | 916               | 5,7               | 886                     | 5,7               |
| Termiz               | 1152              | 7,1               | 1118                    | 7,1               |
| Uzun                 | 926               | 5,7               | 871                     | 5,6               |
| Sherobod             | 1007              | 6,2               | 972                     | 6,2               |
| Sho'rchi             | 1032              | 6,4               | 1010                    | 6,5               |

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 23,9 % savdoda, 12,5 % sanoatda, 11,3 % qurilishda, 7,7 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 7,0 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,5 % tashish va saqlash, 1,8 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,4 % axborot va aloqa va 29,9 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da**




**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi, birlikda**




2018 yil yanvar-sentyabr holatiga 2504 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 45,2 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Termiz shahrida (443 ta), Denov (322 ta), Sho'rchi (241 ta), Qumqo'rg'on (185 ta), Jarqo'rg'on (172 ta), Termiz (154 ta), Qiziriq (148 ta), Angor (138 ta) va Sariosyo (135 ta) tashkil etilgan. Eng kam Oltinsoy (86 ta), Boysun (103 ta), Muzrabot (121 ta), Uzun (127 ta) hamda Sherobod (129 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

#### Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi savdoda (596 ta), boshqa turlarida (557 ta), sanoatda (395 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (333 ta), qurilishda (313 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (166 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqada (17 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (57 ta) hamda tashish va saqlashda (70 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**




**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda**

|  | 2017 yil yanvar-sentyabr holatiga. | 2018 yil yanvar-sentyabr holatiga. |
|--|------------------------------------|------------------------------------|
| <b>Jami:</b>                                       | <b>1725</b>                        | <b>2504</b>                        |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi                 | 242                                | 333                                |
| Sanoat   | 315                                | 395                                |
| Qurilish   | 222                                | 313                                |
| Savdo  | 390                                | 596                                |
| Tashish va saqlash                                 | 101                                | 70                                 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar          | 203                                | 166                                |
| Axborot va aloqa                                   | 19                                 | 17                                 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 27                                 | 57                                 |
| Boshqa turlari                                     | 206                                | 557                                |

## Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 oktyabr holatiga 12220 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo`lib, shundan mas`uliyati cheklangan jamiyatlar – 5565 ta, xususiy korxonalar – 5460 ta, oilaviy korxonalar – 747 ta, va boshqalar 448 tani tashkil etadi.



## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 oktyabr holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 139 tani tashkil etdi. O`tgan yilning shu davriga nisbatan 79 taga yoki 131,7 % ga o`sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko`rsatayotgan korxonalardan 57 tasi qo`shma korxonalar, 82 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yillar davomida o'sish, birlikda




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Termiz shahar 57 ta (41,0%), Termiz 16 ta (11,5%), Denov 9 ta (6,5%), Jarqo'rg'on 8 ta (5,8 %), Sariosiyo va Muzrabot tumanlarida 7 ta dan (5,0% dan), Qumqo'rg'on, Sherobod, Uzun va Angor tumanlarida 6 ta dan (4,3% dan) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Sho'rchi va Qiziriq tumanlarida 4 ta dan (2,9% dan), Oltinsoy 2 ta (1,5%) hamda Boysun tumanlarida 1 ta (0,7 %) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

## Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 oktyabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 48 ta (34,5%), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 36 ta (25,9%), savdoda 25 ta (18,0%), boshqa faoliyat turlarida 10 ta (7,2%), qurilish 9 ta (6,5%) tashkil qilgan, eng kamlari esa, tashish va saqlashda 7 ta (5,0%), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 2 ta (1,5%), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va axborot va aloqada 1 ta dan (0,7%dan) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, axborot va aloqa hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da





2018 yilning yanvar-sentyabr oyida viloyatda xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalar soni 78 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 70 taga ko'paygan yoki 10,3 baravarga oshgan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 3 ta, Xitoy Xalq Respublikasi-1 ta, Koreya Respublikasi - 1 ta, Germaniya Federativ Respublikasi – 1 ta, Buyuk Britaniya– 1 ta, Turkmaniston Respublikasi - 1 ta, Turkiya Respublikasi - 1 ta, Gruzya Respublikasi - 2 ta, Eron Islom Respublikasi - 3 ta, Qozog'iston Respublikasi – 3 ta, Tojikiston Respublikasi - 4 ta, Afg'oniston Islom Respublikasi - 57 ta, yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.

### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, (yanvar-sentyabr holatiga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 29 ta, sanoatda 18 ta, savdoda 14 ta, qurilishda 8 ta, tashish va saqlashda 3, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 1 ta va boshqa faoliyat turlarida 5 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**



## Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 oktyabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 12133 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 oktyabr holatiga qaraganda 13,8 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 2708 tasi (22,3%) Termiz shahriga, 1473 tasi (12,1%) Denov, 963 tasi (7,9%) Jarqo'rg'on hamda 960 tasi (7,9%) Termiz tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

### Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 12133 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 3727 tasi (30,7 %) – savdoda, 1927 tasi (15,9 %) - sanoatda, 1759 tasi (14,5 %) - qurilishda, 1353 tasi (11,1 %) - boshqa faoliyat turlarida, 1173 tasi (9,7 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1081 tasi (8,9 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 690 tasi (5,7 %) - tashish va saqlashda, 218 tasi (1,8 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 205 tasi (1,7 %) - axborot va aloqa sohasi hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va sanoat faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-sentyabr holatiga 2253 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 35,7 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Termiz sh.(401 ta), Denov (303 ta), Sho'rchi (234 ta), Qumqo'rg'on (160 ta), Jarqo'rg'on (156 ta), Qiziriq (144 ta), Termiz (140 ta) va Angor (132 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam Sherobod (122 ta), Sariosiyo (109 ta), Muzrabot (102 ta), Uzun (102 ta), Boysun (93 ta) hamda Oltinsoy (55 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (595 ta), sanoatda (395 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va (333 ta), qurilishda (312 ta), boshqa turlarida (309 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (166 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa tashish va saqlashda (70 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (56 ta) hamda axborot va aloqada (17 ta) tashkil etilgan.


## Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



## Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 oktyabr holatiga 787 tani tashkil etib, ulardan 747 tasi yoki 94,9 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **25,6%** ga oshganligini ta'kidlash lozim.

## Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 32,0 % yoki 239 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 24,9 % yoki 186 tasi sanoat, 22,6 % yoki 169 tasi savdo, 12,6 % yoki 94 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,6 % yoki 12 tasi tashish va saqlash, 1,2 % yoki 9 tasi qurilish, 0,8 % yoki 6 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,3 % yoki 2 tasi axborot va aloqa, hamda 4,0 % yoki 30 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi  
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Nashr uchun mas'ul:  
O.Raxmanov  
(0376) 223-06-95

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida tayyorlangan